

O'zbekiston Prezidenti "Jeneral Elektrik" kompaniyasi vitse-prezidentini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 15-fevral kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan AQShning "Jeneral elektrik" kompaniyasi vitse-prezidenti Ronald Jeyms Pollettni qabul qildi.

"Jeneral elektrik" kompaniyasi jahonning ko'p tarmoqli yetakchi korporatsiyalaridan biridir. Bugungi kunda energetika, mashinasozlik, aniq uskunasoziq, elektr texnikasi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, zamonaviy tibbiyot texnologiyalari, moliya va boshqa ko'plab sohalarda faoliyat yuritadi.

Kompaniya dunyoning 180 dan ortiq mamlakatida faoliyat yuritmoqda, uning korxonalarida 300 mingdan ziyod kishi mehnat qiladi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, kompaniya 120 milliard dollardan ziyod daromad olgan.

Uchrashuvda "Jeneral elektrik" kompaniyasining mamlakatimizdagi faoliyati kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda energetika infratuzilmasi ob'ektlarini modernizatsiya qilish, jumladan, Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida zamonaviy bug'-gaz qurilmalarini qurish, Toshkent issiqlik elektr stansiyasi quvvatlarini kengaytirishning ikkinchi bosqichini amalga oshirish, Pskom gidroelektr stansiyasini barpo etish, gaz yetkazish tizimini rivojlantirish borasida qator ustuvor loyihalar, shuningdek, fuqaro aviatsiyasi va sog'liqni saqlash sohaslarida qo'shma dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari energetika tarmog'idagi o'zaro manfaatli texnologik sheriklik hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish muhimligini alohida ta'kidladi.

Mamlakatimizda, jumladan, xorijning yetakchi mutaxassisleri va ekspertlarini jalb qilgan holda, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ronald Jeyms Pollett Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga samimiy qabul hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarda ikki tomonlama hamkorlikka doir loyiha va dasturlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

"Jeneral elektrik" kompaniyasi mamlakatimiz korxonalar va tashkilotlari bilan uzoq muddatli va keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyor ekanini ta'kidladi.

Manba: [O'ZA](#)